

QOZOQ OILASINING O'ZIGA XOS URF-ODATLARI**Ergasheva Nargiza Ibroximovna***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich 25_02-guruh talabasi***Ilmiy rahbar: Abdirayimov Anvarjon Oribjon o'g'li***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası
katta o'qituvchisi, (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qozoq xalqining oilaviy hayoti, nikox munosabatlariva farzand tarbiyasiga oid o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari hamda tarixiy urf-odatları tahlil qilingan. Tadqiqotda qozoq oilalaridagi ekzogamiya (etti otagacha uylanishning taqiqlanishi) qoidasi, kelin tushirish marosimlari, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va odob-axloq me'yorlari ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan, shuningdek, maqolada CH. Valixonov, A. Levshin, N. Zeland kabi olimlarning qozoq xalqi temperamentiga va oilaviy qadiryatlariga bergan ta'riflari keltirilgan. Maqola milliy qadiryatlarni o'rganuvchi mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Qozoq oilasi, etnopsixologiya, ekzogamiya, urf-odatlar, etti ota, kelin odobi, nikox munosabatlari, milliy qadiryatlar, temperament, farzand tarbiyasi.

Annotation: This article analyzes the distinctive ethnopsychological characteristics and historical traditions related to the family life, marriage relations, and child upbringing of the Kazakh people. The study scientifically examines the rule of exogamy in Kazakh families (the prohibition of marriage within seven generations), wedding and bride-receiving ceremonies, as well as the norms of mutual respect and moral conduct among family members. The article also presents the views of scholars such as Chokan Valikhanov, Alexey Levshin, and Nikolay Zeland regarding the temperament and family values of the Kazakh people. The article is intended for specialists studying national values as well as for a broad readership.

Keywords: Kazakh family, ethnopsychology, exogamy, traditions, seven ancestors, bride etiquette, marriage relations, national values, temperament, child upbringing.

Аннотация: В данной статье анализируются своеобразные этнопсихологические особенности и исторические традиции, связанные с семейной жизнью, брачными отношениями и воспитанием детей у казахского народа. В исследовании с научной точки зрения освещается правило экзогамии в казахских семьях (запрет на брак до седьмого поколения предков), обряды приведения невесты в дом жениха, а также нормы взаимного уважения и нравственного поведения между членами семьи. Кроме того, в статье приводятся взгляды таких ученых, как Чокан Валиханов, Алексей Левшин и Николай Зеланд на темперамент и семейные ценности казахского народа. Статья предназначена для специалистов, изучающих национальные ценности, а также для широкого круга читателей.

Ключевые слова: казахская семья, этнопсихология, экзогамия, традиции, семь поколений предков, этикет невесты, брачные отношения, национальные ценности, темперамент, воспитание детей.

Har bir xalqning o'ziga xos milliy tili, dini, urf-odat va an'analari bilan etnopsixologik xususiyatlarni o'rganish bir qator olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylangan. Shuningdek, qozoq oilasining o'ziga xos etnopedagogik va etnopsixologik xususiyatlari bo'yicha Ch. Valixonov, I. Altinsarin, Abay J. Aymoyitov va boshqa olimlarva yozuvchilar tadqiqodlar olib borishgan. Shu bilan bir qatorda rus etnograf olimlardan- A. Levshin,

A.Yanushkevich, N. G. Potanin, N. Zelan, V. Radlov qozoq oilasining o'ziga xos xususiyatlari va madaniyati xususida qimmatli asarlar bitganlar.

XIX asrining 20- yillaridan qozoq xalqining o'ziga urf-odatlarining o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borish rivojlangan. Ayniqsa, A. Levshinning olib brogan ishlari mukammaldir. U tadqiqotida qozoq oilasidagi sovcilik, qalin puli, nikoh to'ylarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib maxsus monografiya chop etadi. Unda Qozog'iston geografiyasi, tarixiy va etnografiyasini batafsil bayon etib "qozoq" so'zini ilmiy jihatdan asoslashga xarakat qiladi. Bu millatning xos psixologik xususiyatlariga esa quydagi ta'rif xosdir." Mehribon, Yoshi katta kishilarga hurmati balandligi eng yaxshi xislatlardan biridir, xalq dovrug'ini olamga taratgan farzandlarga "mard" "jasur" degan nom berib, bu dunyodan o'tgan bo'lsa ularni xotirlab qadrlaydi va tug'ilgan joyini e'zozlaydi", deb ta'riflaydi. Vatanparvarlik ular uchun milliy xislatlardan biri ekanligini va odamgarchilik xislatlarini alohida ta'kidlab o'tadi. (4)

Antropolog olim N. Zeland (1833-1902) 1885-yilda qozoq xalqi xususida tadqiqotlar olib borib, "Qozoqlar "nomli etnografik ocherk yozadi. Zeland shaxsning tog'ma xususiyatlariga xususan, temperament tipo logiyasining ahamiyatiga e'tibor qaratgan, u ko'chmanchi qozoqlarning ko'proq sangvinik temperamentiga mansubligini ta'kidlaydi. Bu xalqning insonparvarlik xususiyatlari orasida halolikni halollikni, mehribonlikni, mehmondo'stlikni, chidamlilikni va boshqa xislatlarni alohida eslatib o'tadi. Shuningdek, asarda qozoqlarning tana tuzilishi xususida ham qiziqarli dalillar keltirib, Bolani beshikka solishning foydasi, bolaga ism qo'yish va sunnat qilish odatlari bo'yicha ham gapiriladi. Olim qozoq xalqiga quydagicha qiziqqan xalq hisoblanadi. Ularning psixikasiga oddiylik xos, sergak, ko'pincha tezda xafagarchilikka bormaydi. Ular qiziqqon xalq bo'lishining asosiy sababi, ko'chmachilik hayotidan bo'lsa kerak. Keng sahroda yashaydigan odamlarning toza havodan nafas olishi, chanqaganda suvni ko'p iste'mol qilishi, dininiy aqidalarga mos keladigan taomlarni tanlashi, oshqozon va ichak yo'lini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida, ruhiy kuchni saqlashga turtki bo'ladi", - deb qozoqlarning urf- odat va ovqatlanish usullari ilmiy hamda tibbiy jihatdan asoslab berishga harakat qiladi.

Boshqa xalqlar kabi qozoq xalqi ham o'ziga xos tarixiy an'analari, udumlari, rasm-rusumlari va milliy qadriyatlari bilan ajralib turadi. Qizlarni nikohga tayyorlash masalasi qozoq oilalarida ham o'ziga xos xususiyatga ega. Qiz bola voyaga yetayotgan har bir xonadonda uning barcha xatti-harakatlari ma'lum darajada nazorat ostiga olinadi. Ularni xalqimizning eng yaxshi urf-odatlarini, udum va milliy qadriyatlari asosida oilaviy hayotga tayyorlash momo va onalarimizning burchi hisoblanadi. Momo va onaxonlarning o'git, pand-nasihatlarini orqali kelinlik davrining o'ziga xos mas'uliyati, kuyovning yaqin kishilari oldidagi burchlari uqtirilib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, qizlarda bo'lajak kelin va ona sifatidagi tasavvurlar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Yangi hayot ostonasida turgan qizlar o'ziga xonadonga kelin bo'lib borar ekan, ulardan hayo, ibo, iffat, andisha, odob-ahloq bilan birgalikda kelinlarga xos bo'lgan burch, vazifa, urf-odat va kelinlarga qo'yiladigan talablarni mukammal o'rganish talab etiladi. Momo va onalarning o'gitlariga quloq solib, ular o'rgatgan amallarni so'zsiz bajargan qizlar oila qurgandan so'ng yangi muhitga moslashishi oson kechadi. Bunda qizlarda bo'lg'usi kelin haqidagi tasavvurlarning shakllanishida tarbiya bilan bir qatorda bevosita ijtimoiy-psixologik muhit ham katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi tarbiya va oilaviy hayot haqidagi bilimlarning o'zlashtirilishi qizlarni bo'lg'usi oilaga tayyorlashda saboq vazifasini bajaradi.

Qozoq oilasida yangi tushgan kelin qaynota va qaynog'alaridan yashirini yurishini, ba'zan umr bo'yi qochib, yashirini yuradigan kelinlar ham uchrashini olim X.Arg'inbayev o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tadi [1].

Qozoq oilasidagi kelinlarning xatti-harakatida quyidagicha ta'qiqlar mavjud:

- ro'molsiz yurmaslik;
- katta kishilar oldidan kesib o'tmaslik;
- katta kishilar o'tirgan uyga kirmaslik;
- kattalar suhbatlashganda ularning suhbatiga qo'shilmaslik;
- kuyov qarindoshlarining ismini aytib murojaat etmaslik;
- xonadon sohiblari oldida baland ovoza gapirmaslik;
- yosh bolani urishmaslik va hokazo [1].

Ushbu fikrlarga qo'shimcha sifatida shuni ham ta'kidlashni istardikki, oila a'zolari o'rtasidagi bunday munosabatlar qadriyatga aylanib ulgurgan. Yuqoridagi odob-ahloqqa amal qiluvchi kelinlar, oila a'zolari hamda mahalla oldida alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'ladilar.

Qaynota, qaynonasidan alohida istiqomat qiladigan kelinlar, ular yashaydigan uyning to'riga chiqmaydi, to'shagiga o'tirishmaydi. Hatto, ular olamdan o'tgan kundan boshlab, uyning to'ri, to'shaglari kelinlar uchun muqaddas hisoblanganligi bois, bu odatni buzganlar qattiq kasalga chalinadi, deb hisoblashadi [1]. Kelinlarga kuyov qarindoshlarining ismini aytib murojaat etish qattiq ta'qiqlanadi. Bu odat xususida ilk marotaba N.I.Ilminskiy: "Qozoq oilasida kelin-kuyov qarindoshlarining ismini aytib murojaat etmaydi. Kuyovning aka-ukalariga, opa- singillariga alohida yangi ism bilan murojaat etiladi", deb ta'kidlaydi [1].

Kelin tomonidan yangi ism bilan murojaat etish, kuyov qarindoshlarining yoshiga, jinsiga, qarindoshlik munosabatlarining uzoq-yaqinligiga bog'liq. Bunda kelinning so'zga chechanligi, hozirjavobligi, e'tiborli va eng muhimi farosatli bo'lishi unga katta yordam beradi. Sababi, har bir insonning tashqi, ichki kechinmalari, xarakterini e'tiborga olib, ularga yoqadigan ismlar qo'yish har bir kishining qo'lidagi keladigan ish emas.

Qozoq oilalaridagi yana o'ziga xos muhim jihat shuki, kelin tanlashda uning qaysi urug' (ru) vakili ekanligiga alohida ahamiyat beriladi. Binobarin, bu juda nozik masala. Shuning uchun qozoq oilalarida voyaga yetayotgan har bir o'g'il- qizga uning qaysi urug'dan ekanligi, shu nomdagi urug' egalari ularga qarindosh bo'lishi va albatta, ular bitta urug' vakillari sifatida turmush qura olmasliklari farzandlarga yoshligidanoq uqtirilib boriladi. Bu bir necha asrlardan buyon saqlanib kelinayotgan urf-odat hisoblanadi. Chunki qozoqlarda etti otaga katta e'tibor qaratiladi va tanlangan kelin qarindosh bo'lmasligi uchun etti otagacha qon aralashtirmaydi. Bu esa keyingi avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga etishiga turtki bo'ladi. Shu sabab, yosh bola ongiga etti otasini bilish lozimligini, etti otagacha bir-biri bilan quda bo'lish mumkin emasligini singdiradi.

Venger olimi A. Vamberi "O'rta Osiyo ocherklari", "O'rta Osiyoga sayohat" nomli asarlarida: "...ikki qozoq bir-biri bilan uchrashib qolsa, ularning dastlabki savoli "Etti otang kim?" – deb murojaat etadi va bunga etti yashar bola ham shoshmasdan javob bera oladi" – deb ta'kidlab o'tadi [5]. Buning o'ziga xos tarbiyaviy jihati mavjud. Ularda kelin tanlashda qarindosh bo'lmasligi, bo'lg'usi kelin "etti otadan" keyingi avlod bo'lishi an'anasi hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Yetti otaga" to'lmasdan kelin tanlash etnografiya ilmidagi "ekzogamiya" deb yuritiladi.

Qozoq xalqida ekzogamiya qoidasining o'ziga xos xususiyatlari haqida bir necha olimlar tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, A.Levshin ekzogamik qoida qozoqlarda qat'iy saqlanib qolganligi, hattoki bir urug' (ru) vakillari bir-biri bilan nikolashishga ruxsat

berilmasligini o'z tadqiqotlari davomida kuzatib borgan. Buning natijasida, boshqa urug' vakillaridan kelin tanlashga harakat qilinishini A. Levshin tadqiqotlarida tahlil qilib bergan [4].

Z. J. Janazarovning "Современная семья в Казахстане и ее проблемы" nomli monografiyasida oilaning nazariy-metodologik masalasi keng yoritib beriladi [2]. Mazkur asarda hozirgi qozoq oilasining nikoh munosabati, nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar, ajralish sabablarini ochib berishga e'tibor qaratilgan.

Monografiyada nikohga bog'liq 4 ta daraja ko'rsatiladi:

- 1) nikohga bo'lgan salbiy fikr;
- 2) bo'lajak turmush o'rtog'ini tanlashga bo'lgan yuqori talab; mabodo shaxs o'z idealini uchratmasa, umr bo'yi yolg'iz o'tishga tayyor;
- 3) tanlashning o'rta qismi, bunda shaxs o'zi yoqtirgan turmush o'rtog'ini uchratib qolsa, turmush qurishga tayyor;
- 4) tanlashning pastki qismi, bunda insonga nikohdan boshqa hech narsaning keragi yo'q, u nikohni yuqori darajaga qo'yadi [2].

X.A.Arg'inbayev o'zining "Qozoq oilasining o'ziga xos urf-odatlari" nomli asarida qozoq oilasi, oila qurishdagi nikoh shakllari, uylanish bilan qalin pyli, shuningdek, qozoq oilalaridagi madaniy hayot hamda nikoh munosabatlarini kengroq yoritib bergan [1].

Qozoq etnopsixologiyasida kelinlarning oilada amalga oshiradigan bir necha vazifalari bor. Ularda kelin tanlash, kelin olishda o'ziga xos bir-biridan farq qiluvchi urf-odat, an'ana, udum va marosimlari mavjud. Ularning yuzaga kelishida ijtimoiy, madaniy, tarixiy, hududiy va tabiiy omillarning bevosita roli bor.

Shuningdek, yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan o'ziga xos qonun-qoidalar, qat'iy talablar ham mavjud.

Oila va nikoh muammosiga qiziqishlar doim barqaror va ommaviy bo'lib kelgan. Jamiyat uchun mazkur ijtimoiy institutlarni bilish va ular rivojlanishini yo'naltirish masalasi birinchi darajali ahamiyatga ega. Nikoh – bu avvala er- xotinlik ijtimoiy rollarini qabul qilish bo'lib, qoidaga ko'ra yangi oila ota-ona oilalaridan birining hududida yashay boshlashi, oilaga yangi insonning kirib kelishi bilan xarakterlanadi.

Qozoq oilasining etnopsixologik xususiyatlaridan biri – kelinlarning oilada amalga oshiradigan bir necha vazifalari bor. Ularda kelin tanlash, kelin olishda o'ziga xos bir-biridan farq qiluvchi urf-odat, an'ana, udum va marosimlari mavjud.

Ularning yuzaga kelishida ijtimoiy, madaniy, tarixiy, hududiy va tabiiy omillarning bevosita roli bor. Shuningdek, yoshlar tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadigan o'ziga xos qonun-qoidalar, qat'iy talablar ham mavjudligini ta'kidlash joiz.

Ushbu maqola qozoq xalqining oilaviy qadriyatlari, ayniqsa kelin tushirish, qarindoshlik rishtalarini asrash (etti ota qoidasi) va oiladagi odob axloq me'yorlarini tahlil qiladi. Maqoladan quyidagi asosiy xulosalar kelish mumkin:

Milliy genofondini asrash: Qozoqlardagi "etti otagacha" qon aralashuviga yo'l qo'ymaslik(ekzogamiya) qoidasi kelajak avlodning sog'lom bo'lishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim tarixiy mexanizmdir. Kelinlik odobi-oila mustahkamligi asosi: Yangi oilaga kelgan kelin uchun belgilangan taqiqlar va hurmat qoidalari (qaynota-qaynona oldidan kesib o'tmaslik, ismini aytmaslik va h.k.) shunchaki cheklov emas, balki oiladagi iyerarxiya va o'zaro hurmatni saqlashning o'ziga xos maktabidir. Tarbiyaning uzviyligi: Qizlarni kichikligidan oilaviy hayotga, ro'zg'or tutishga va muomala madaniyatiga tayyorlash qozoq oilalarida tizimli ravishda amalga oshirilgan.

Adabiyotlar

1. X.Arınbaev Qozoq oilasining o'ziga xos urf-odatları. – Almati: “Qaynar”, 2005. – 216
2. З.Ж.Жаназарова Современная семья в Казахстане и её проблемы. – Алмата: Qazaq universiteti, 2004. – 257 с.
3. Н.Л.Зеланд Кашгария и перевалы Тянь-Шаня: путевые записки. – Омск: Тип. Окр. “Штаба”, 1888. – 234 с.
4. А.И.Левшин Описание орд и степей казахов. 2-е изд. доп. – Астана: “Алтын кітап”, 2007. Т. 9. – 212 с.
5. Qozoqlar. Urf-odat va anhanalar/ Tuzuvchilar. T.Quanishev, K.Qunipiyayev, B.Tutenaev. – Almati: “Biliq”, 5-chi T. 2003. – 174 b.